

## **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLANING RIVOJLANISHI VA TARBIYASIGA PROFESSIONAL YORDAM KO'RSATISHDA OILA, MAHALLA VA MAKTAB BILAN HAMKORLIK ISHLARI**

**Yakubova Zilola Zikirovna**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Universiteti o'qituvchisi

E-mail: [zilolaykubva79@mail.ru](mailto:zilolaykubva79@mail.ru)

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'z navbatida ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi zarur. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo'lib, bunday tarbiyalash jarayonida mehnat va ijtimoiy faoliyatni oilaviy vazifalar bilan qo'shib olib boradigan, farzandlari hayotiga qiziqadigan va ularga odilona rahbarlik qiladigan ota - onalar ijobiy o'rnak bo'ladigan kishilardir. Professional tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, oila va mahalla hamkorligida bola shaxsini tarbiyalashda oila va jamiyatning ham roli nihoyatda katta ekanligini ko'rsatib beradi.

**Kalit so'zlar:** Professionalizm, professional tarbiyachi, ijtimoiylashuvi usullari, ta'lim va tarbiya sohasi, hamkorlikning ilmiy asoslanganligi.

### **COOPERATION WITH THE FAMILY, NEIGHBORHOOD AND SCHOOL IN PROVIDING PROFESSIONAL SUPPORT FOR THE CHILD'S DEVELOPMENT AND EDUCATION IN THE ORGANIZATION**

**Abstract:** The preschool organization needs to establish a partnership with its parent company. The content of the work with parents is diverse, and in the process of such upbringing, children who are interested in life and lead them fairly, who are accompanied by the development of labor and social activity, are the ones who emerge as parents. The role of both the family and the community in the individual upbringing of the child in partnership with the family and the community is extremely high, with the establishment of professional care facilities.

**Key words:** Professionalism, professional educator, methods of socialization, education and upbringing, scientific basis of cooperation.

Yosh avlodni yaxshi xulqli, davlat ramzlariga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jixatlariga, xarakteriga alohida ahamiyat berish, chunki bularsiz tarbiyada ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Oila, mahalla, Maktabgacha ta‘lim tashkiloti hamkorligida quyidagi tamoillarga va bosqichlarga amal qilganda samaradorlik yanada yuqori bo‘ladi.

- Ta‘lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtrokchilari harakatlarning ish birligi;
- tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg‘unligi;
- hamkorlik jarayoni sub‘ektlarning teng xuquqligi va yuksak ma‘suliyati;
- faoliyat jarayonida millat va davlat maanfatlari ustuvorligi;
- hamkorlikning ilmiy asoslanganligi;

Maktabgacha ta‘lim tashkilotining maqsadi: bolalarni o‘qitish, tarbiyalash, qarab turish va parvarish qilish jarayonida paydo bo‘ladigan tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini sezilarli amalga oshiruvchi ta‘lim - tarbiya jarayonini olib borishdir. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti maktabgacha ta‘lim ustaviga muvofiq bo‘lgan zarur shart-sharoitlarni ta‘minlaydi. Bolalar hayotini muhofaza qilish va sog‘lig‘ini mustahkamlashga doimo g‘amxo‘rlik qiladi.

Maktabgacha tarbiya yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta‘limi bo‘ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ko‘rgazmali-harakatli, ko‘rgazmali-obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so‘z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkuri rivojlantiriladi. Professional tarbiyachi bolalarda tafakkur faoliyatini tarkib toptirishi, bu hodisalarni, voqealarni chuqur anglab olish, ularning muhim bo‘lgan va muhim bo‘lmagan tomonlarini ajratishga o‘rgatishi lozim.

Shunchaki, professionallarga o‘z sohasi bo‘yicha yuksak cho‘qqiga chiqishiga yo‘l qo‘ying, to‘sqinlik va o‘z ishini mahorat bilan bajargani uchun keraksiz tanqid qilmang!

Professional tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo‘lgan savollarga o‘z vaqtida javob berishga harakat qiladi, ularni mustaqil javob qidirishga

yo'llab, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda qiziquvchanlikning susayishiga yo'l qo'ymaydi. Bolalarni o'z navbatida tarbiyalab boradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'z navbatida ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi zarur. Bu esa bola tarbiyasida oila bilan hamkorlikning eng samarali usullaridan biridir. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo'lib, unda ayrim masalalarni birgalikda muhokama qilishni taqozo etiladi. Masalan:

- bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to'g'risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida;

- maktabgacha tarbiya tashkilotining yillik ish rejasi to'g'risida;

- ota-onalar jamoatchiligining ishi haqidagi masalalar shular jumlasidandir.

Bu masalalarni jamoa bo'lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiy majlislari, maslahatlar, konferensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi. Professional tarbiyachi bola tarbiyasini shakllantirishda oila tarbiyasiga chambarchas bog'laydi.

Shunday ekan bola tarbiyasi bir vaqtning o'zida "Maktabgacha ta'lim", "Oila" va "Jamiyat" nuqtai- nazarida shakllanib boradi. Biz oilani "Davlat ichra kichik davlat"- deb ataymiz. Unda yangi inson, ya'ni davlatning yangi bir vakili dunyoga keladi. Kichik davlat - oila esa bu inson uchun dastlabki hayot dorilfununi bo'ladi. Shu sababli ota - onalar farzandning birinchi o'qituvchisi va tarbiyachisidir. Farzandni barkamol va ma'naviy yetuk qilib o'stirish uchun, eng avvalo ota - onaning o'zi yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lishi kerak. Farzand tarbiyasini ota - onalar o'z shaxsiy ishi deb bilmasliklari kerak.

Aslida bola tarbiyasi ota - onaning jamiyat oldidagi fuqarolik burchi va davlat oldidagi mas'uliyati hamda qarindosh - urug'lar oldidagi javobgarligidir. Shuning uchun ham ota - ona obro'si farzand tarbiyasida ma'naviy ozuqa bo'ladi. Bu ma'naviy ozuqa bola tarbiyasida "ufq" ni ko'zlab ish tutishda mustahkam poydevor hisoblanadi. Bunday tarbiyalash jarayonida mehnat va ijtimoiy faoliyatni oilaviy vazifalar bilan qo'shib olib boradigan, farzandlari hayotiga qiziqadigan va ularga odilona rahbarlik qiladigan ota - onalar ijobiy o'rnak bo'ladigan kishilardir, ya'ni obro'li ota - onalardir.

Bunday odamlar o‘z farzandlari tarbiyasiga oilada ham, maxallada ham, maktabgacha ta’limda ham e’tibor beradigan aqlli odamlar, namunali oilalar a’zolari bo‘ladi.

Mahalladagi pedagog-tarbiyachiga 30 yoshgacha bo‘lgan, jismonan baquvvat, kamida 5 yildan kam bo‘lmagan pedagogik stajga ega bo‘lgan, sport va biznesni yaxshi tushunadigan, mahalladagi yoshlarni yoki tarbiyasi og‘ir bolalarni, voyaga yetmaganlarni o‘z orqasidan ergashtirib, ular bilan shug‘ullanadigan shaxs bo‘lishi lozim. Bu ishlarni amalga oshirishda “Mahalla” jamg‘armalari, yoshlarning “Kamolot” ijtimoiy harakati, sport qo‘mitalari o‘rtasidagi hamkorlikni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, “Bir bolaga yetti mahalla-ota ona” degan naqldan kelib chiqib, kelajak avlodni tarbiyalashda kichik Vatan bo‘lmish oila va mahallaning o‘rni beqiyosdir.

Toshkent shahrida XIX asrdan boshlab mahalla mavjud. Ularning tashkil topishi va faoliyat yuritishi bir tomondan milliy- psixologik xususiyatlari, boshqa tomondan esa aholiga yoshligidanoq ijtimoiy munosabatlarga g‘arq bo‘lishlariga imkon yaratish bilan bog‘liqdir. Boshqacha aytganda, mahalla mikrotizim bo‘lib, unda axloqiy tamoyil va qoidalarga amal qilish, marosim va jamoat faoliyatining boshqa turlarida ishtirok etish orqali shaxsning yanada kattaroq hamjamiyatda ijtimoiylashuvi usullari shakllanadi.

Ijtimoiylashuv nafaqat shaxsning jamiyatda qulayliklarga ega bo‘lishini ko‘zda tutadi, balki shaxsning muayyan axloqiy va etnik qoidalarni egallashini ham ko‘zda tutadi. Shu borada mahalla ijtimoiylashuvining unikal mexanizmi hisoblanadi. Chunki unda:

- har bir inson amal qilishi kerak bo‘lgan muayyan axloqiy qonunlar ishlab turadi;
- muomala bir qator axloqiy tamoyillarga asoslanadi;
- hokimiyatga ishonch va xizmat, shaxsiy namuna kuchi, kattalarga hurmat, bolalar haqida g‘amxo‘rlik;
- axloq va jamoatchilikning tarbiyasi amaliy faoliyatga kiritish orqali amalga oshiriladi;
- ommaviy ong qadriyatlarini mahalladan oila va shaxsga uzaytiriladi;

- alohida shaxs hayotining asosiy bosqichlari jamoaning barcha a'zolari tomonidan kuzatuvda bo'ladi.

Bolalarni maktabga tayyorlash bosqichida Maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar o'zaro hamkorligi – Maktabgacha ta'lim tashkiloti «Ilk qadam» Davlat o'quv dasturining muhim yo'nalishlaridan biridir. Aksariyat ota-onalarda bolani maktabga tayyorligi uning o'qish, yozish va sanash ko'nikmalarini shakllanganligi, xotirasi yaxshiligi bilan yakunlanadi degan noto'g'ri fikr mavjud. «Maktabga tayyorlash» tushunchasi – bu kompleks, uzoq muddatli va tizimli bog'cha va oila sharoitida bolani maktabgacha tayyorlash jarayonidir.

Maktabga tayyorlik o'z ichiga o'quv faoliyatiga oid ko'nikmalarni egallash shakllanganligi: ish bajarishda bolani qoidalar tizimiga rioya etishi, kattalarni tinglash va ularning yo'l - yo'riqlarini bajarish, namunaga qarab ishlash va boshqalarni o'z ichiga oladi. Aynan maktabga tayyorgarlikning shu tomonlari ko'plab ota-onalar uchun notanish bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim bola rivojlanishining, uning shaxs sifatida madaniyati shakllanishining asosi ekanligini ota-onalar bilishlari kerak. Maktab – bo'lajak kattalarni tayyorlash maskani emas, balki bolani o'rab turgan dunyoda yashashni o'rgatadigan, boshqalar bilan ishlash va zarur bilimlar olish maskanidir. Aksariyat ota-onalar bolani maktabga tayyorlashga, uni bilim olishga ijobiy munosabatini shakllantirishga ongli tarzda va mas'uliyat bilan yondashishga tayyor emas, bu esa o'z navbatida bolani maktabga moslashishidagi qiyinchiliklar va bilimlarni yaxshi o'zlashtira olmasligiga sabab bo'ladi.

Bolaning maktabga tayyor emasligi sabablari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- bola diqqatini jamlay olmaydi, tez chalg'iydi, guruhning umumiy ish rejimiga qo'shila olmaydi;
- nutqi va aqliy qobiliyati kuchsiz rivojlangan bo'ladi, savol berishni, predmetlarni taqqoslashni, asosiy ajratishni bilmaydi;
- kam tashabbus ko'rsatadi, namunaga qarab harakat va xulosalarga intiladi, kattalar va o'rtoqlari bilan o'zaro munosabatlarda muammolarga ega bo'ladi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – ota-onalarni bolaning maktabga tayyorlanishida farzandini qo’llash va unga hamrox bo’lishga o’rgatishdir. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglari tomonidan olib boriladigan maslahatlar o’z mazmunida bolaning dunyoni ko’rgazmali-obrazli ko’rish qobiliyatlarini oshirish, bilish jarayonida modellashtirish, tasavvurni mahsuldorligi, ko’plab pedagogik ta’sirlarga sezitivligi (barqarorlik), rahm-shavqat, muruvvatga o’rgatishni saqlashi lozim.

Ota-onalar yig’ilishi va maslahatlar mavzulari xilma-xil bo’lib, ularga pedagogik va psixologik yordam ko’rsatish, masalan «Bolaning maktabda o’qishida kommunikativ tayyorligini shakllantirishda o’yinlarning ta’siri», «Birinchi sinf o’quvchilarining ota-onalari nimani bilishlari kerak?», «Maktab ta’limiga bolaning intellektual tayyorgarligi», «Bolada shaxsiy g’urur va o’zini o’zi hurmat qilishni qanday qo’llab – quvvatlash kerak?», «Turli bilishga doir mavzularda oiladagi o’yinlar» mavzularida suhbatlar olib boriladi.

Shunday qilib, insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bu o’z navbatida bola shaxsini tarbiyalashda oila va jamiyatning ham roli nihoyatda katta ekanligini ko’rsatib beradi.

Xulosa qilib aytganda, bola tarbiyasida maktabgacha ta’lim, Oila va Jamiyatning ham birdek xissasi bordir. Chunki bola oilada ilk bor ta’lim- tarbiya olsa, uni maktabgacha ta’limda yanada shakllantiradi, mustahkamlaydi va qisqa tushuntirish, nasihat yoki o’yinlar orqali tarbiya elementlarini egallaydi.

#### **Fodalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. N.M. Egamberdiyeva. Ijtimoiy pedagogika.// Дарслик. Т.: 2014й.
2. SH.A.Sadiqova. Maktabgacha pedagogika // Дарслик. Т.: 2018 й.
3. Azizxo’jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Т.: 2003